O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING ANDIJON
VILOYATI BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li
Sana: 22-12-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

269672 - SONLI

Obyekt nomi: "8 qavatli 1-qavati maxalla kompleksi yuqori qavatlari turar-joy" bino va inshootlari qurilishi (Loyiha ishlariga o’zgartirish kiritish (1-qavat devor tarxi o'zgarishi) hamda qayta ekspertiza xulosasi olish uchun)	
Buyurtmachi:	ORIENT DREAM LAND MCHJ
Bosh loyihachi:	"ME`MOR ARCH CONCEPT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“ORIENT DREAM LAND” MChJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	104303

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon viloyati xokimi tomonidan 2025-yil 16-dekabr kuni tasdiqlangan №08/13-81-sonli yig`ilish bayoni.
1.2. Andijon viloyati xokimining 2025-yil 11-fevral kungi №68-1-0-Q/25-sonli qarori.
1.3. Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 28-fevralda berilgan №1703-1703401-215701-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.
1.4. Buyurtmachi “ORIENT DREAM LAND” MChJ tomonidan tasdiqlangan va bosh loyihachi “ ME`MOR ARCH CONCEPT” MChJ bilan kelishilgan 2025-yildagi loyixa topshirig'i.
1.5. Buyurtmachi “ORIENT DREAM LAND” MChJ hamda loyiha tashkiloti o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 2025-yil 1-iyuldagi №24/25-sonli shartnoma.
1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 25-noyabrdagi №230025220-sonli xulosasi.
1.7. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organi kompleksini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish bo`yicha 2025-yil 19-fevraldagi №2-sonli bitim.
1.8. Buyurtmachi “ORIENT DREAM LAND” MChJning 2025-yil 12-dekabrdagi aloqa xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “O’ZGASHKLITI” MChJ Andijon filiali tomonidan 2024-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO'P QAVATLI TURAR-JOY	8	400.16	3494.04	13205.3	42
Jami:			**400.16**	**3494.04**	**13205.3**	**42**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C^0 li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C^0.

Maydon seysmikligi 9-balli.

3.2. Bosh reja:

Andijon shaxri xududida ilova etilgan bosh reja asosida “8 qavatli 1-qavati maxalla kompleksi yuqori qavatlari turar-joy” bino va inshootlari qurilishi Andijon shahar, Yoyilma (Yangi bo`ston) MFY, Nodira ko'chasi, 2-a-manzil hududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Andijon viloyati xokimining 2025-yil 11-fevral kungi 68-1-0-Q/25-sonli qaroriga asosan yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan. Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Maydon shimol tomondan – ko`cha bilan, sharq tomondan – ko`cha bilan, janub tomondan – maktab yer maydoni bilan, g‘arb tomondan – qo`shni hudud bilan chegaralangan. Bosh rejada loyihaviy turar-joy binosi, bolalar maydonchasi, avtoturargox, mavjud TP, chiqindi tashlash qutisi joylashgan.

Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihaviy “Ko'p qavatli turar-joy” binosi – sakkiz qavatli, bir pod`ezdli va yerto`lali, to’g’ri to’rtburchak shaklda bo`lib, 1-blokdan iborat rejada o`qlari bo`yicha o’lchamlari 16,0x24,0 metr. Binoning yerto`la qavati balandligi poldan shiftgacha 3,0 metr, birinchi va yuqori qavatlarning balandligi poldan shiftgacha 3,06 metr.

Binoning birinchi qavati ofis, mahalla fuqarolar yig`ini uchun loyihalangan bo`lib, unda majlislar zali, arxiv, rais xonasi, maxalla posboni xonasi, ijtimoiy ximoya xonasi, hokim yordamchisi xonasi, xodimlar dam olish xonasi, yo`lak, xoll, hojatxona, lift va zina joylashgan.

Turar-joy binosi umumiy maydoni 3494,04 m^2, yashash maydoni 1482,04 m^2, 1 ta zinapoya katagi va xoll umumiy maydoni 265,05 m^2, 1 dona lift umumiy maydoni 29,44m^2. Bino yerto`la qavatida ofislar, elektr jihozlari xonasi, suv jihozlari xonasi, zina va xoll joylashgan bo`lib, yerto`la maydoni 340,88 m^2 dan iborat.

Binoda 2 xonali honadonlar 14 dona, 3 xonali honadonlar 28 dona, jami 42 dona honadon loyihalashtirilgan.

Ichki pardozlash - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyilahalash topshirig`iga muvofiq tayyor xolda topshirish shartisiz, xonadonlar pardadevor bilan xonalarga bo`lingan, ichki pardozlash ishlarida devor va shift yuzalari yaxshilangan suvoq bilan tekislanadi hamda pol qismi beton to`shama xolatida pardoz ishlariga tayyor holatga keltiriladi.
Deraza, vitraj, oynalar va framugalar - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyilahalash topshirig`iga muvofiq zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.
Pol – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyilahalash topshirig`iga muvofiq tayyor xolda topshirish shartisiz, pol qismi beton to`shama xolatida pardoz ishlariga tayyor holatga keltiriladi.
Tashqi pardozlash ishlari - bino tashqi yuzasi mineral plitalarni mahkamlash uchun yelimli qorishma, mustahkamlovchi shishatolali setka qoplansin so’ngra ustidan yelimli gips qorishma, so'ngra fasadni travertin suvoq qilish kerak, sokol keramogranit plitka bilan pardozlash ko’zda tutilgan. Pandus va tashqi zina yuzalari keramogranitdan qoplanadi. Otmostka – shag`al asosli bo`lib, beton qorishmadan bajariladi.
Binolarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalari va tugunlari QMQ 2.01.03-19 “Zilzilaviy hududlarda qurilish”ga asosan qurilish me'yorlari va qoidalarining 3.1-jadva1 bo'yicha 1.2.2. bandiga asosan 1-punkti b-bandi bo'yicha ishlab chiqildi va Lira xisob kitoblari asosida loyihalandi.
Binoning konstruktiv yechimlari qattiq konstruktiv sxema asosida qabul qilindi.
Konstruksiyalar tasnifi: Poydevor - quyma yaxlit temirbetondan. Poydevor osti armaturalar bilan mustaxkamlangan. Devor - quyma temirbeton monolit devor beton qorishma hamda D600 markali gazablokdan (avtoklafa), devorlar metallar bilan kuchaytililgan oraliq devorlar, burchak kesishmalari SG-1 rusumli sim to’r bilan kuchaytirilgan. Pardadevor – 150 mm gazablokdan bo`lib, metal ustunlar va metal sarbastabilan kuchaytiriladi. Xorilar – quyma temirbeton qorishmadan. Orayopma va tom yopma - quyma temirbeton qorishmadan. Zina - quyma temirbetondan tiklanadi. Lift shaxtasi – quyma temirbetondan. Tom - yog’och konstruktsiya, qoplama profnastildan t=0.51mm. Tom yompasining issiqlik himoyasi mineralvatadan 100 mm. Otmostka - quyma beton qorishmadan b=5,0 sm, shag`al to`shamali b=12,0 sm, kengligi b=120,0 sm.

Shuning bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida ichki muhandislik tarmoqlari, hududni obodonlashtirish va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarini bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino-inshootlarda qayta tiklanuvchi energiyamanbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan. Bino yo’laklariga xarakat datchigiga ega yoritish chiroqlari orqali yoritish ko’zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismi mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.

- Tom issiqlik qatlami - mineral paxtadan 100mm qalinlikda.
- Pol izolyatsiyasi – penopleks issiqlik qatlami qoplanadi.
- Sokol izolyatsiyasi – penopleks issiqlik qatlami qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilindi va maxsus belgilar o`rnatildi;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- binoga kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirildi;
- binodagi yo’laklarga taktil qoplamalar qoplandi;
- bino hududida hojatxona tashkil qilindi va va maxsus belgilar o`rnatildi;
- binoda ko`tarish moslamasi o`rnatildi;
- eshiklar chekkasiga kontrast rangli lentalar re’jalashtrildi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ob`ektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 28-fevralda berilgan №1703-1703401-215701-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta'minoti “Andijon suv ta`minoti” AJ tomonidan 2025-yil 9-iyunda berilgan №87-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filiali tomonidan 2025-yil 17-martda berilgan №0340111221-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Binoni isitish Markazlashgan issiqlik tizimidan amalga oshiriladi. Isitish sistemasi ikki quvurli gorizontal pastdan tarqatish usuli qabul qilingan. Issiqlik tashuvchi quvurlar pol ostidan berk holatda tortilgan. Issiqlik tashuvchi quvurlar keying qavatlarga shaxtalar orqali o’tgan. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig’iga asosan xonadonlar ichida joylashgan issiqlik tarmoqlari inventarlarsiz (radiator, sochiq qurutgich, elektr suv isitgich, umivalnik, moyka va unitazlarsiz) loyihalangan. Binolar uchun shamollatish tizimi tabiiy va mexanik usulda qabul qilingan. Oshxonalar uchun xavo tortish uskunalarini o’rnatish. Shamollatish eshik va derazalar orqali. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig’iga asosan Issiqlik manbaasi 2-bosqichda bajariladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Binoga xo‘jalik-ichimlik, oqava suv, issiq suv ta’minoti tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi elektr suv isitgich va quyoshli suv isitish kollektorlaridan amalga oshiriladi. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig’iga asosan ichimlik suv va oqava suv tarmoqlari inventarlarsiz (radiator, sochiq qurutgich, elektr suv isitgich, umivalnik, moyka va unitazlarsiz). Binoning yerto’la qismiga suv saqlash baki va 2 dona bosim xosil qilish nasoslari hisobga olingan. Xar bir xonadonga issiq suv va sovuq suv uchun zamonaviy suv xisoblagichlar o’rnatilishi ko’zda tutilgan. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyihalangan bo‘lib tashqi oqova suv tarmog‘iga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan. Tashqi muhandislik tarmoqlari Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig’iga asosan tashqi muhandislik tarmoqlari 2-bosqichda amalga oshiriladi.

Yong‘in xavfsizligi tizimi:

Loyihada 1 ta blokdan iborat 8 qavatli turar joy binosi qurilishi rejalashtirilgan. Yerto‘la qavatida ofis va texnik xonalar, 1-qavatida mahalla fuqarolari yig‘ini idorasi hamda 2-8 qavatlarida yashash kvartiralari joylashtirilishi rejalashtirilgan. Binoning tom-chordoq qismiga

chiqish ichki zinapoya orqali. Yerto‘la qavatidan evakuatsiya derazalari va bevosita tashqariga chiqish evakuatsiya yo‘llari tashkil etilgan. Lift qurilmasi 1-qavatdan pastga tushmaydigan qilib loyihalangan. Tom qismi – yog‘och konstruksiyalari yordamida profnastil yopilgan. Isitish tizimi – mahalliy.

Binoning yong‘inbardoshlik darajasi – I, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi - S0, funksional yong‘in xavfi sinfi – 1.3. Turar joy binolarining balandligi +24,3 m (yer satxidan eng yuqori qavatining ochiladigan eshigining pastki chegarasigacha).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlar ko‘zda tutilgan:

- Turar joy binosi tashqi devorlarining izolyasiyasi yonmaydigan materialdan, har bir kvartiralardan ochiq turdagi balkonlarga chiqish, bino atrofida yong‘in-qutqaruv avtoekipajlari harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘l, tom yog‘och qismlariga yonish xususiyatini pasaytiruvchi suyuqlik bilan ishlov berish, sokol va tepa qavatlar kvartiralarining yo‘lak va oshxonalari yong‘in signalizatsiya tizimi, evakuatsiya chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari.

Elektr ta`minoti tizimi:

Elektr ta’minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar-joy binosi 2 toifali iste’molchilarga tegishli.

Energiya tejamkorlik:

Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.

Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan. Bino yo’laklariga xarakat datchigiga ega yoritish chiroqlari orqali yoritish ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 25-noyabrdagi №230025220-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Andijon viloyati filiali tomonidan 2025-yil 12-mart kuni berilgan №01-02/03-3418-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **8 699 759 430** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

669 263 721 so'mga oshirilib, **9 369 023 151** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **7 965 813 923** so'm

Asbob-uskunalar: **399 385 319** so'm

QQS: **1 003 823 909** so'm

6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.

6.4. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi

Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 25-noyabrdagi №230025220-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.5. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisloblanadi.

6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, ob’ekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligini inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.10. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.

6.11. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq issiqlik manbai va tashqi muhandislik tarmoqlari keying bosqichda amalga oshiriladi.

6.12. Ekspertiza tomonidan avval taqdim etilgan 07.08.2025-yil kungi №253955-sonli yig‘ma ekspert xulosasi buyurtmachi “ORIENT DREAM LAND” MChJning 2025-yil 12-dekabrdagi aloqa xati va 12.12.2025-yildagi №104303-sonli murojaati asosida bekor qilinadi.

6.13. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 8 699 759 430 so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 669 263 721 so'm o`zgargan ish hajmlari va qurilish materiallari narhlari hisobidan ortdi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyixa bo`yicha; “Andijon shahar, Yoyilma (Yangi bo`ston) MFY, Nodira ko'chasi, 2-a-manzil hududida “ORIENT DREAM LAND” MChJ tomonidan “8 qavatli 1-qavati maxalla kompleksi yuqori qavatlari turar-joy” bino va inshootlari qurilishi (Qayta ekspertiza)”, taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni - 400,16 m^2;
Umumiy maydon - 3494,04 m^2;
Yashash maydoni - 1482,04 m^2;
Qurilish hajmi - 13205,3 m3;

Me'yoriy mehnat sarfi - 48 485,22 odam-soat
Joriy narxdagi tavsiyaviy
(boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan - 9 369 023 151 so'm.
(Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Bosh ekspert: Sadiqov Alisher Odiljonovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Baxtaxunova Muxayyo Kozimjon Qizi, Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li, Olimjonov Jaxongir Nabijon O‘g‘li